

ONA TILI DARSLARIDA AKT(AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR)DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Salimova Gulsanam

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning o'quvchilarning bilim saviyasiga, motivatsiyasiga va dars samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy AKT vositalari va ular orqali tashkil etilgan dars turlari misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, metod, texnologiya, AKT, samaradorlik interaktiv ta'lif, innovatsion metodika.

Abstract: This article examines the impact of the use of information and communication technologies (ICT) in native language lessons on students' knowledge level, motivation, and lesson effectiveness. It also analyzes modern ICT tools and types of lessons organized using them based on examples.

Keywords: innovation, method, technology, ICT, effectiveness, interactive education, innovative methodology.

Bugungi kunda ta'lif tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish jarayoni kengayib, fanlarni o'qitishda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, til o'rgatishda texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Ona tili darslarida AKTdan foydalanish o'quvchilarda tilni o'rGANISHGA bo'lgan qiziqishni oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va interaktiv o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Barchamizga ma'lumki hozirgi ta'lif tizimimizda yetarlicha o'zgarishlar yangiliklar mavjud. Ayniqsa biz yangi yetishib chiqayotgan kadrlar bilishimiz va o'rGANISHIMIZ kerak bo'lgan bilimlar, yangiliklar juda ko'p. Shulardan hozirgi kunda eng

ahamiyatlisi bu AKT (axborot kommunikatsion texnologiya) laridir. AKT vositalarini bilmasdan, tushunmasdan turib yetuk kadr bo‘lish imkonsiz. Chunki hozirgi kundagi dars jaroyonlarimiz bular bilan uzviy bog‘liqdir.

Yurtimiz ta’lim tizimida maktab fanlarini o‘rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish targ‘ib etilmoqda. Axborot texnologiyalari ta’limning universal vositasi hisoblanadi. Zamонавиу texnologiyalar o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, ularni o‘qishga, o‘rganishga, shaxsiy xususiyatlarini rivojlashtirishga va bilishga qiziqishlarini orttirishga yo‘naltirishda muhim vazifa bajaradi. AKT o‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, ijodiy xususiyatlari, nazariy bilimlari va refleksiv tafakkurini kengaytirishga katta ta’sir qiladi. Asosan, AKTlar o‘quvchilarning obrazli fikrlashlarini orttiradi va ilmiy bilimlarni yanada osonroq, ular bilan chambarchas holda o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy ko‘zlangan maqsad - zamонавиу ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yishdir.

Ona tili darslarida axborot kommunikatsion texnologiya vostitalaridan foydalanish esa ta’lim tizimida juda ko‘p imkoniyatlar yaratmoqda. Darslarda AKT ni qo‘llash darsni individuallashtirish va differensatsiyalash uchun imkon yaratmoqda. Ular ta’lim tizimiga yangi metodlar ,usul va qizqarli o‘yinlar olib kirish imkonini bermoqda.

Ona tili darslarida Aktdan foydalanish orqali esa o‘qituvchi juda ko‘p vazifalarni amalga oshirishi mumkin. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqshini oshiradi.

-ona tili darslarida so‘zlarning qanday o‘qilishini tasvirlangan taqdimot yoki kichik ertak va hikoyachalar o‘qilayotgan paytda o‘sha ertakka mos multimedia qo‘yish, harflarni tog‘ri va chiroqli yozish aks ettirilgan qisqagina videoroliklardan foydalanish mumkin.

- ona tili darslarida animatsiyali masalalardan foydalanish, hisob kitobli o‘yinlar tashkil etish slaydlaridan foydalanib mashqlar bajarishni o‘rganishimiz mumkin.

- tabiatga bag‘ishlangan mashqlarda tabiat hodisalari aks etgan yoki tabiatni asrashga tarbiyaviy jihatdan tuzilgan qisqagina videoroliklar orqali foydalanish mumkin.

-tinglab tushunish bilan bo‘g‘liq topshiriqlar bajarilayotganda video orqali ham eshittirish mumkin bu esa o‘quvchilarni zerikmasligi uchun imkon yaratadi, balki ularni vizul ko‘rishini ,tassavur qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

-grammatik mavzularni tushuntirishda ham Kohot ,Quizizz,Padlet Google forms orqali test va mashqlar tashkil etishi mumkin.

Til o‘rganishda va ona tili darslarida axborot kommunikatsiya vositalarining o‘rni va samaradorligi juda katta.Dars jaroyonida axborot kommunikatsiya vositalaring samaradorligini tekshirish va uni yanada rivojlantirish uchun 8-sinf o‘quvchilarida tajriba o‘tkazib ko‘rdik.Tajriba ikki sinfda tashkil etiladi yoshi ham mavzulari ham bir xil.

1-guruh (Exsperimental sinf)-AKT vositalari orqali o‘qitildi.

2-guruh (nazorat sinfi)-An’anaviy metodlar asosida o‘qitildi(doska ,darslik,og‘zaki tushuntirish)orqali.

Exsperimental guruhda qo‘llanilgan AKT vositalari:

.Canva taqdimoti-sifat turlari va missollar grafiklar va turli xil belgilar bilan tushuntirildi

.Quizizz orqali interaktiv test –mavzudan keyin 10 ta test savoli real vaqt rejimida bajarildi.

.Wordwall o‘yini-sifatlarni ajratish va ularni to‘g‘ri bog‘lash mashqlari bajarildi.

.YouTube video-“sifat haqida qisqa qisqa animatsion video “orqali tushuncha mustahkamlandi.

Tajriba natijalari:

Ko‘rsatkich	Eksperimental guruh	Nazorat guruhi

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar	92%	63%
Testda to‘g‘ri javob o‘rtacha foizi	87%	68%
Mavzuni mustaqil tushuntirishga qodir o‘quvchilar	80%	52%

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki ,AKT vositalari yordamida tashkil etilgan dars:

-o‘quvchining faolligini oshiradi – vizual va interaktiv muhit o‘quvchini jalb qiladi.

-Yaxshi o‘zlashtirishni ta’minlaydi – matn, ovoz va harakatlar orqali ko‘p kanalli o‘rganish amalga oshadi.

-Individual yondashuvga imkon yaratadi – har bir o‘quvchi o‘z sur’atida o‘rganadi.

-Zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi – raqamli savodxonlik, mustaqil izlanish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki AKT vositalari orqali tashkil etilgan darsning samaradorligi juda yuqori natijada.

Metodist olima Niyaozmetova R.- “A dabiyot o‘qitish metodikasi “asarida shunday yozadi:”Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish,interfaol metodlar ,pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quv darslari jarayoni vaqtida foydlanishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ona tili fanini o‘qitish jaraqitish jaraononi yanada takomillashtiradi.”¹deb aytadi .

¹ Husanboyeva Q.Niyazmetova r.Adabiyot o‘qitish metodikasi O‘quv qo‘llanma.-T.;Barkomol fayz media,2018.

Hozirgi internet va texnika vositalari egallab olgan hayotimizda bu vositalarsiz o‘quvchilarning darsga qiziqshini va e’tiborini tortish juda murakkab ish. Ayniqsa hozirgi maktab o‘quvchilarini hattoki o‘zimizni ham chalg‘ituvchi, vaqtimizni behuda kemuruvchi vositalar kam emas. Shunday ekan bu vostitalardan samarali va unumli foydalanishimiz kerak. AKT vositalarini mukammal va to‘g‘ri foydalanishni bilasak u bizni ishalarimizni osonlashtirib va foydali qilib beradi. Qolaversa jahon miqiyosidagi ta’limni berishimiz va olishimiz uchun ham juda katta vazifani o‘taydi.

Xulosa: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi zamonaviy darslarning mazmun va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda nafaqat texnik fanlar, balki ona tili kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham AKTdan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda darslarni yanada interaktiv va qiziqarli tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, ona tili darslarida AKTdan oqilona foydalanish – zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv o‘qituvchining darsga puxta tayyorlanishini, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishni va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Shu bois, kelgusida AKT vositalarini yanada kengroq joriy etish, ularni dars mazmuni va maqsadlariga muvofiq tanlash – ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.
2. Olimov Q.T. va boshqalar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. O’quv qo’llanma. - Toshkent.
3. Yo’ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya.
4. Turaev A., Yusupova S. “Pedagogik texnologiyalar asoslari”, Toshkent, 2021.

5. Mahmudova M. “Ona tili darslarida AKTdan foydalanishning nazariy asoslari”, Ilmiy maqolalar to‘plami, 2022.

6. Anderson T. “Teaching in an Online Learning Context”, Athabasca University, 2018.